

O'ZBEK VA XITOIY TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARI VA MADANIY JIHATLARI

Matkarimova Nargiz Muxamataminovna
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
Xitoyshunoslik Fakulteti Stajor O'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek va xitoy tillaridagi frazeologik birliklari va madaniy jihatlari va frazeologik birliklar madaniy tilshunoslik nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan. Har bir tilning frazeologik tarkibi millat madaniyatining eng o'ziga xos qismidir, chunki u xalqning turmush tarzi, qadryat va urf-odatlarini, stereotiplari va ramzlarini aks ettiradi. Frazeologik birliklarning asosiy xususiyatlari madaniy o'ziga xoslik bilan tavsiflanadi. Shuni ta'kidlash joizki, fe'l frazeologizmlar va iboralarning o'ziga xoslik tushunchalarining birlashtiruvchi xususiyati lingvistik ob'ektlarga lisoniy tuzilmaning yaxlitligi, hamda, shakl va mazmun birligi nuqtai nazaridan yondashiladi.

Kalit so'zlar: Frazeologik birlik, madaniy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, konsept, subkonsept, felisitologiya, etnik guruhlarning madaniy xususiyatlari, leksik-semantik xususiyatlar.

Kirish

Inson yaralibdiki, til uning dunyoqarashi va madaniyati rivojida katta ro'l o'ynaydi. Aynan, til yordamida har bir inson o'zini anglash va tafakkur qilish jarayonini ifodalaydi. Tarixdan bizga ma'lumki, "biror-bir xalqni yo'q qilmoqchi bo'lsang, uni tilini, madaniyatidan boshla", degan naql bor. Hozirgi kunda jahonda tilshunosligida tilda frazeologik birliklarning rivojlanishini madaniy jihatdan o'rganishi til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni ko'rsatadi, chunki turg'un iboralar tilning boshqa lingvistik birliklariga qaraganda xalq hayoti bilan bog'liqdir. Hozirgi kunda globallashtirish davrida jahon xalqlari madaniyati va adabiyotining turli tillarga tarjima qilinishi, shu orqali o'sha xalqlarning tillari va madaniyati borasida



axborot almashinuvchi sodir bo'lamoqda, boshqa xalqlari madaniyati haqidagi axborotlarni o'zga xalq o'quvchilariga yetkazishda badiiy tarjimaning ahamiyat beqiyosdir. Badiiy tarjima orqali badiiy adabiyotda mujassam bo'ladigan xalqlarning madaniyati, an'ana va qadriyatlar, turmush tarzi, ularning xarakteri va boshqa jihatlar xorijiy til o'quvchilariga yetkaziladi. Ular ko'p asrlik hayotiy tajribalar, hozirgi kungacha davom etib kelayotgan an'ana va marosimlar asosida shakllangan. Til nafaqat haqiqatni ifodalaydi, balki uning qanday talqin qilinishi bilan ham shug'ullanadi, natijada odamlar yashaydigan noyob haqiqat paydo bo'ladi. Til turli xil maqsadlar. Bu ko'pincha odamlar ifoda etadigan asosiy vosita sifatida tanilgan o'zlari va bir-birlari bilan muloqot qilishadi. Til to'plash uchun ishlatiladi va madaniy muhim moddiy saqlab. Turli tilshunoslar tilni quyidagicha atashgan "ob'ektiv haqiqat uyi" va biz nafaqat chuqur o'rganishimiz mumkin bo'lgan vositalar zamonaviy millatchilik, shuningdek, qadimgi odamlarning dunyoga bo'lgan qarashlari va madaniyat. Hikmatlar, so'zlar, frazeologik birliklar, metafora va madaniy vakolatxonalar bir necha yil oldin sodir bo'lgan va omon qolgan voqealarni aks ettiradi asrlar davomida. Ular knning muhim manbalari sifatida qaraladi. Shunday qilib, aqliy fazilatlar aniq seziladi. Ayniqsa, frazeologik birliklar tarkibida onomastik komponentlar mavjud bo'lganda, bu xususiyat yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Sababi, onomastik birliklar xalqning o'tmishi bilan bugungi hayotini bog'lovchi ko'prik bo'lib qolgan. Binobarin, turli tizimli tillardagi frazeologik birliklarni, ularning etimologiyasi, tuzilishi, semantikasini alohida o'rganish, tasnifini yaratish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir¹. Ko'p asrlar davomida til va madaniyat bir tizimning ajralmas elementlari – dunyoning umumiy lingvistik manzarasi bo'lib kelgan. Bundan tashqari, turli madaniyat vakillari atrofdagi voqelikni o'zlarining stereotiplari, ramzlari, standartlariga muvofiq idrok etadilar va talqin qiladilar. Tildagi tizimli munosabatlarning eng muhim ko'rinishlaridan biri uning qarama-qarshiligidir. Abdug'afur Mamatov hammualliflikda yozgan monografiyasida quyidagi so'zlarni zikr qilib o'tadi: "Taniqli tilshunos L.V.Sherba "kontrastlar o'ziga diqqatimizni kuchli jalb qiladi" deya ta'kidlagan edi. "Antonimning zamirida bir jinsli narsalar, hodisalar,

¹ Kharatova, S. K., & Ismailov, T. X. O. G. L. (2022). Use of innovative technologies in the educational process. *Science and Education*, 3(3), 713-718.



harakatlar, sifatlar, belgilardagi sezilarli farqlarni aks ettiruvchi qaramaqarshi assotsiatsiya yotadi. Antonim eng muhim lingvistik universallardan biri, turli tillarning leksik-semantik tizimining muhim o'lchovlaridan biridir" Haqiqatdan ham frazemik antonimlar bir tomondan uslubiy vosita sifatida o'zaro zid tasvir, taqqoslash, keskin qarama-qarshilikni ifodalasa, ikkinchi tomondan dunyodagi real qarama-qarshilikni aks ettiradi. 他这人腰缠万贯，出手大方，一掷千金，不会亏待您的。Tā zhè rén yāochánwànguàn, chūshǒu dàfāng, yīzhìqiānjīn, bù huì kuīdài nín de. Uning puli achib yotibdi, saxiylik bilan hammaga ulashadi, xovuchxovuch ulashadi va sizni albatta xursand qiladi. U va puli oshib toshib yotgan sahiy inson bo'lib, juda ko'p pul sarflaydi va sizni xafa qilmaydi. (T) Keltirilgan misolda 腰缠万贯 yāochánwànguàn – puli achib yotibdi, puli oshib toshgan deb tarjima qilinadi ya'ni boy, badavlat ma'no kelib chiqadi. Ushbu fe'l frazeologik birlikka quyidagi frazeologik birikma antonim bo'la oladi: 赤贫如洗 chì pín rú xǐ – bir tiyinsiz qolish, qashshoq bo'lish ma'nolarini anglatadi. Frazeologik birliklar madaniyat haqidagi bilimlarni to'playdi va xalqning madaniy va tarixiy tajribasini va har qanday tilning rivojlanish xususiyatlarini eng yorqin aks ettiradi. Frazeologik birliklar ajdodlarning lingvistik merosining bir turi bo'lib, qisqa so'zda axloqiy qonun va sog'lom fikrni o'z ichiga oladi. Lingvokulturologiya uchun frazeologik birliklarning lingvistik materialining o'ziga xosligi ulardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq:

1. Frazeologik ma'noning yaxlitligi. Frazeologiya-bu to'liq yoki qisman qayta talqin qilingan ma'noga ega barqaror birikma xisoblanadi. Frazeologik aylanmaning sobit tuzilishi uning lingvistik idiomatikligini va frazeologik birlik ma'nosini uning tarkibiy qismlarining to'g'ri ma'nolaridan ajratib bo'lmasligini yaratadi. Muayyan madaniyatga xos bo'lgan muayyan munosabat, urf-odatlar va an'analar va frazeologik aylanmada aks ettirilgan avloddan-avlodga o'tadi, bu esa boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilishga imkon bermasligini ko'ramiz. Masalan, bir piyola choy bering, xitoy choy ichish an'anasi bilan bog'liq. Buyuk Britaniya iqlim xususiyatlari, shuningdek, bu mamlakatda hayot haqida stereotip g'oyalarni aks ettiruvchi ba'zi



frazeologik birliklar paydo ta'sir: yomg'ir hech qachon, lekin u yog'adi-', ob-havo ostida bo'lishi.

Frazeologik birliklarning tasviri alohida etnik guruhning eng muhim, axloqiy, axloqiy va hayotiy munosabatlarini aks ettirishi mumkin, uning tarkibida o'ziga xos komponent so'zlari bo'lmagan. Masalan, frazeologik birliklar yordamida jamiyatdagi xulq-atvor naqshlarini tasvirlash mumkin:

Chet tilini o'rganishda ko'pincha frazeologik birliklarning ma'nosini tushunish bilan bog'liq qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Izohlashning qiyinligi frazeologik aylanmaning ichki shaklida yotadi. Ichki shakl – bu yashirin ma'noda madaniy ahamiyatga ega ma'lumotlarni o'z ichiga olgan belgilangan ob'ektning vizual-hissiy tasviri. Frazeologiyani majoziy asosini tushunish uchun etnologik voqelikni, ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan mentalitetning qadriyat munosabatlarini bilish muhimdir, Shuning uchun frazeologiyani lingvokulturologik tahliliga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Yuqorida keltirilgan misollar hamda fikrlardan ma'lm bo'ladiki frazeologizmlar ma'noning umumiy yoki qarama-qarshi ma'nolariga ega bo'lsa, shuningdek, atonim mazmunida qo'llanilsa, leksik jixatdan bir xil bo'lsa, antonim hisoblanadi. Frazeologik antonimlar, birinchidan, frazeologik ma'noning individual xususiyati, kelib chiqishi obrazlarning bir-biridan farq qilishi nuqtai nazaridan ko'p qo'llanilmaydi, shuningdek keng tarqalmagan deb ham fikr bildirishimiz mumkin. Shuningdek, Emirova A.Z. ham o'z frazeologik antonimlar haqida quyidagi fikrlarni ilgari surgan: "Frazeologik antonimiya, shubhasiz, leksikadan ko'ra murakkabroq hodisaligi bilan izohlanadi. Frazeologik birliklar. ma'nosining o'ziga xos xususiyatiga ega turg'un so'z birikmasi sifatida tilning yuqori darajadagi birligidir". Frazeologizmlar ma'no jihatdan qarama-qarshi bo'lishi mumkin, ammo antonim bo'lolmaydi, chunki ularning antonimlik tasvirlari bir-biriga bog'liq emas. Frazeologizmlar, agar ularning qarama-qarshiligi barcha ma'no elementlariga taalluqli bo'lsa, antonim frazeologizmlar qatoriga kiritishimiz mumkin deb hisoblaymiz. 充耳不闻 chōng'ěrbùwén – quloqlarini yopmoq, eshitmaslik ushbu so'zga mos antonomik feel frazeologik birlik 洗耳恭听 xǐ'ěrgōngtīng – quloqlarini yuvib eshitmoq so'zma-so'z tarjima qilinganda diqqat bilan tinglamoq deb ham



tarjima qilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi; 笨嘴拙舌 bèn zuǐ zhuō shé – tili boshini yeydi (ahmoq og‘iz bidirlar) deb tarjima qilinsa unga antonim frazeologik birlik sifatida 伶牙俐齿 língyálichǐ – tili o‘tkir (xitoy tilida tishga nisbatan tishi o‘tkir) olindi. Xitoy tilining frazeologik lug‘atida ushbu turdagi frazeologik antonimlardan tashqari boshqa turdagi frazeologik antonimlar ham mavjud. Unda antonimlar o‘zaro semantik mazmun bo‘lib birinchi va uchinchi qism o‘zgarishi bilan yasalgan bo‘lib, 恒 héng va 怒 nù so‘zlariga antonim qilib 慈 cí 善 shàn so‘zlari olingan, keyingi misolda esa 一 yī bir soni va 三 sān 二 èr ikki va uch sonlari qo‘llanilgan. Bir soni domiy o‘zgarimas yagona degan ma‘noni anglatrsa, ikki va uch sonlari frazeologik birlikda doimiy emasligi o‘zgarishi mumkunligini bidirib kelgan. 她又拉开了夹层的拉链，摸出了那个女人的照片。她说：快来看呀！红色小姐们聚到一起，七嘴八舌议论。他的愤怒到了顶点，用一连串的脏话咒骂她们，但她们浑然不觉。Tā yòu lā kāile jiācéng de lāliàn, mō chūle nàgè nǚrén de zhàopiàn. Tā shuō: Kuài lái kàn ya! Hóngsè xiǎojiěmen jù dào yīqǐ, qī zuǐ bā shé yìlùn. Tā de fènnù dào le dǐngdiǎn, yòng yīliánchuàn de zāng huà zhòumà tāmen, dàn tāmen húnrán bù jué. Qizaloq to‘pponchani qayta joyladi va ichki cho‘ntagidagi shirildoqni surib ochib, xaligi xotinning fotosuratini chiqardi. – Xoy, bu yoqqa qaranglar, nima bor ekan! – dedi qiz. Ofitsiant qizlar uni o‘rab olishdi va biri olib-biri qo‘yib, har kim ko‘nglidagini ayta boshladi. Azbaroyi g‘azabdan u qizlarni changitib so‘ka ketdi, ammo qani endi ularni eshitgani qulog‘i bo‘lsa[4,98]. U(ayol kishi) yana hamyonidan o‘sha ayolning suratini chiqardi. – “Tezroq kela qolinglar! Ofitsiant qizlar yig‘ilib, biri olib biri qo‘yib har nima deya ketishdi. Uning g‘azabi chiqib, ularni bir qator bo‘ralab so‘kdi, lekin ular buni sezishmadi. (T) Ushbu 七嘴八舌 qī zuǐ bā shé – biri olib biri qo‘yib har nima deya ketishdi fe‘l frazeologik birlikka antonim frazeologik birlik sifatida 异口同声 yìkǒutóngshēng – ko‘plam odamlar bir narsa haqida gapirishi, hamma bir yoqadan bosh chiqarmoq, hamma bir ovozdan mos bo‘la oladi. Keltirilgan frazeologik birliklar tuzilishi jihatdan bir-biridan farq qiladi lekin ma‘no jihatdan ular aynan fe‘l frazeologik antonimlar hisoblanadi. Yana bir misol keltiramiz: o‘zbek tilida (biron bir narsani) kaftidek



biladi qilmoqchi bo‘lgan ishini yaxshi biladi, qiladigan ishi tayin; bu frazeologik birlikka qarama-qarshi frazeologik birlik esa u qo‘lini bu qo‘liga urib o‘tirish hech narsa qilmaslik, erinchoqlik qilmoq. Xitoy tilida 口是心非 kǒushìxīnfēi – dili boshqa tili boshqa (ikkiyuzlamachi); 心口如一 xīnkǒu rúyī – qalbi tili bir bo‘lmoq (sofdil). O‘zbek va xitoy tillarida fe‘l frazeologik antonimlarning tahlili jarayonida, ma’no jihatdan bir biriga antonim bo‘lgan frazeologik birliklar o‘ziga xosdir. Shuningdek, tillar o‘rtasida antonim ekvivalentlik topish bir muncha mushkullikni keltirib chiqardi. Fe‘l frazeologizmlarning antonimlari analoglarni keltirib chiqaradi va buning asosiy sababi o‘zbek va xitoy xalqlarining milliy madaniyatlaridagi tafovutlar, shu tillarda so‘zlashuvchilarning tushunchalari va mentalitetidagi bir mavzu, hodisaga oid turli tushunchalarning mavjudligi bilan bog‘liqdir.

References:

1. Kharatova, S. K., & Ismailov, T. X. O. G. L. (2022). Use of innovative technologies in the educational process. *Science and Education*, 3(3), 713-718.
2. Львов, М.Р. Словарь антонимов русского языка - М.: Русский язык, 1985. - 384 с.
3. 莫言。酒国。页 72。
4. Амир Файзулла, Севара Алижанова (таржимаси) МоЯн. Мусаллас мамлақати. –Тошкент: Ўзбекистон 2018, 185 б 5. Готлиб О. М., Му Хуаин. Китайско-русский фразеологический словарь. – Иркутск, ул. Лермонтова Издательство “ИГУ” 2019, 73 с. (596).

